

**MAKTABAGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA GIPER BOLALARGA
TA'LIM-TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK YO'LLARI**

*Samarqand viloyati, Samarqand shahar
22-Son DMTT direktor o'rinbosari
Tilyavova Nasiba Baxtiyorovna*

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida giper bolalarga ta'lim-tarbiya berishning nazariy va amaliy yo'llari tahlil qilib berilgan. Jismoniy va aqliy holatida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik va psixologik usullar orqali ta'lim va tarbiya berishning samaradorligi innovatsion jihatlarini asoslab berildi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan (nogiron) bola, giper bola, giperfaol bola, samarali korreksiya, psixonevrologik dispanser, reabilitatsiya markaz.

**PEDAGOGICAL METHODS OF EDUCATING HYPER CHILDREN IN
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS****Annotation**

The article analyzes theoretical and practical methods of educating hyper children in preschool educational organizations. Innovative aspects of the effectiveness of educating and educating children with physical and mental disabilities through pedagogical and psychological methods are substantiated.

Keywords: child with disabilities, hyper child, hyperactive child, effective correction, psychoneurological dispensary, rehabilitation center.

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrida qabul qilingan, senat tomonidan 2019-yil 14- dekabrda maqullangan qonuning 3-moddasida aytib o'tilganidek. Maktabgacha ta'lim va tarbiya - bolalarga talim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy, axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishiga shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turidir.

Nevrotik holatdagi munosabatlar bolani tashqi muhit muammolaridan himoya qilish, doimo xavotirli kayfiyat, bolaga haddan tashqari ortiqcha g'amxo'rlik qilish bilan xarakterlanadi. Boladagi nuqsonni bartaraf etishga umidsizlik bilan qaraydilar, ishonchsizlik hosil qiladilar. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarining shakllanmasligi yoki kech shakllanishiga, ijtimoiy hayotga moslashuvini qiyinlashuviga, boqimandalik kayfiyatida voyaga yetishiga olib keladi. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati

cheklangan bolalar kelajak hayotiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Natijada ota-ona o'z farzandini boqi-beg'am, loqayd qilib tarbiyalaganlagini sezmay qoladi. Shuni aytish joizki, imkoniyati cheklangan bola hayotining daslabki kunlaridanoq uni me'yorida rivojlanishi va o'sishi, nuqsonini bartaraf etilishi hamda xulqining shakllanishiga yordam beruvchi turli xil usullar va tarbiyaviy omillar mavjud. Ayniqsa bunday bolalarda axloq madaniyatini shakllantirish, atrofdagilar bilan o'zaro muloqat qilish, xurmat bilan munosabatda bo'lishiga hamda o'z tengdoshlari va kattalar bilan muomala qilish madaniyatini o'rgatish ota-onalar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Agarda imkoniyati cheklangan (nogiron) bolaning xatti harakatlarida muammolar bo'lsa, masalan, bola haddan tashqari asabiy ya'ni giperfaol bo'lsa darhol tegishli mutaxassis shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Ayniqsa ota-onalarning haddan tashqari asabiylashishi, me'yoridan ziyod tartibga chaqirishi, noo'rin tanbeh berishlari boshqalarning ham e'tiborini tortib, bolaning xatti harakatlariga salbiy munosabatda bo'lishga olib keladi. Bunday vaziyatni oldini olish uchun bolaning e'tiborini uni qiziqtiradigan narsalarga qaratish lozim. Nuqsonli bolani tarbiyalash jarayonida uni qaysi holatda bo'lishidan qa'tiy nazar u qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish lozim. Psixosomatik holatdagi munosabatlarda bolaga har ikkala nevrotik va avtoritar uslubda munosabat ko'rsatiladi. Ya'ni, ota-ona nogiron bolaga ham haddan tashqari g'amxo'rlik qiladi, ham bolaning imkoniyatini chegaralaydi. Bunday munosabat bolaning boshqalarga qaramligini ortishiga, ijtimoiy jamiyat haqidagi tasavvurlarning yanada ortib borishiga, nuqsonlarining chuqurlashib ketishiga olib keladi. Nuqsonli bolaning tevarak atrofdagilar bilan ko'proq muloqatda bo'lishi uning kelajakdagi ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga zamin yaratadi. Mashxur psixolog L.S. Vigotskiy "Bola tug'ilgan kundan boshlaboq ijtimoiy vujudir", deb tasdiqlagan edi. Darhaqiqat, imkoniyati cheklangan bola o'z hayotida zarur bo'lgan bilim va tajribalarini o'z ota-onalaridan o'rganib boradi. Shuni aytish joizki ba'zan ota-onalar o'zlarining tashqi ko'rinishlariga e'tibor bermay qo'yishadi. Bu esa bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda ota-ona o'z tashqi ko'rinishiga e'tibor bermasa bolaning ham tashqi ko'rinishiga e'tibor bermaydi. Chunonchi har bir ota-ona o'z farzandlarining nogironlik toifasini e'tiborga olgan holda o'z yoshiga mos va bolaga qulay bo'lgan kiyimlarni estetik did bilan kiyintirishi ham ularni ruhlantirib hayotga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Ota-onalar o'z farzandlarida mavjud bo'lgan nuqsonlarni va qiyinchiliklarni yengib o'tishi uchun o'z vaqtida tegishli mutaxassislarga murojaat etib ularning maslahati va hamkorligida korreksion-tarbiyaviy, psixologik-pedagogik va tibbiy rehabilitatsiya ishlarini hamkorlikda olib borish muhimdir. Har bir ota-ona o'z farzandining ruhiy va jismoniy rivojlanishi qonuniyatlarini mukammal bilishlari lozim. Mutaxassislar ota-onalarning o'z farzandlarini nuqsonlarini bartaraf eta olishiga bo'lgan ishonchini orttirish va uni topa

olish usullarini ko'rsatishlari kerak. Bola uchun daslabgi tarbiyachi ota-onadir. Ota-onaning farzandlari bilan ochiq va samimiy munosabatlarni o'rnatish muhimdir. Bolaga tarbiya berish o'qitishga nisbatan qiyinroq vazifa hisoblanadi. Chunki tarbiya ishi murakkab va juda uzoq muddatni talab qiladigan jarayondir. Shuning uchun ham bola tarbiyasida oilaning o'rni eng muhim hisoblanadi. Me'yoriy oddiy munosabatlarda ota-onaning nogiron farzandiga avvalo shaxs sifatida qaraydi. Uning kamchiligidan uyalishi, qo'rqish, hadiksirash hissi yashamaydi. Mutaxassislar bilan doimiy hamkorlik o'rnatishga intiladi. Mutaxassislar maslahati va ko'rsatmalariga amal qiladi. Farzandini kelajagiga ishonch hissi bilan yashaydi. Bunday holatdagi munosabat asosida boladagi mavjud nuqsonni erta aniqlash, samarali korrektsiyalash va ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish imkoniyatlarini paydo qiladi. Bolaning o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari yuqori darajada rivojlanadi, ijtimoiy hayotga erta va imkon qadar to'laqonli moslashadilar. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oila ko'p hollarda psixotraumatik holatda bo'lishi kuzatiladi. Tadqiqotchi olimlar nogiron farzand tug'ilgan oilalarni o'rganib, bu oilalarni quyidagi to'rtta inqiroz bosqichiga ajratgan:

Birinchi bosqich: o'zini yo'qotib qo'yish, qo'rqish bilan xarakterlanadi. To'xtovsiz tarzda "Nima uchun mazkur hodisa faqat menda sodir bo'ldi?" degan savolni o'ziga takror-takror beradi. Ayrim ota-onalar sodir bo'lgan voqelikni qabul qila olmaydilar. Aybdorlik va to'laqonli emaslik his-tuyg'usi paydo bo'ladi. Behalovatlik holatida bolaga qo'yilgan tashxisni rad etish davrini tadqiqotchilar inqirozining ikkinchi bosqichi deb hisoblaganlar. Ayrim ota-onalar maslahatchi-mutaxassislarga nisbatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lib, turli xil ilmiy va tibbiy markazlarga murojaat etib, qo'yilgan tashxisni qabul qilsalarda, bolaning rivojlanish imkoniyatlariga yuqori talabda ishonch bilan qaraydilar. Oilaning iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holda, ota-onalar o'zlaricha "eng kuchli shifokorlar" yoki "ilohiy kuch"ga ishonib tinib-tinchimaydilar. Bu hodisalar albatta vaqtinchalik bo'lib, ota-onalar tashxisini chuqur tahlil etib tushunib yetganlaridan so'ng boshqa fikrga kela boshlaydilar.

Haqiqatni tushunib yetish holati olimlar uchinchi bosqich deb belgilaydilar. Ota-onalarning mustaqil tarzda birinchi marta tashxis qo'yilgan maskanga borib, maslahatlashishlari ijtimoiy psixologik adaptatsiya deb ataluvchi to'rtinchi bosqichni belgilaydi. Bunda ota-onalar birgalikda mavjud holatni to'g'ri tushunib, baholab faqat bolaning qiziqishini birinchi o'ringa qo'yishadi. Mutaxassislar bilan ijobiy muloqatda bo'lishadi, ularning maslahatlariga quloq solishadi va shu orqali tashvishlar birmuncha kamayib, kelajakka ishonch tarzida faollik ko'rsata boshlaydilar. Ko'pchilik ota-onalar farzandlarining umuta'lim maktablariga qatnagunlaricha mavjud nuqsonlarini anglamaydilar yoki e'tibor bermaydilar. Bola maktabga chiqib o'zlashtirishida tengdoshlaridan orqada qola boshlagachgina muammoning asl sababi ustida bosh

qotiradilar. Tabiiyki, ushbu bolaga maktabgacha yoshida maxsus korreksion yordam ko'rsatilmagan. Natijada bolaning imkoniyatlari yanada chegaralanadi, korreksion ishning samaradorligi pasayib ketishiga olib keladi. Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, bu munosabatlardagi mavjud kamchiliklarni tuzatish va oldini olish, mutaxassis va oila hamkorligini yulga qo'yish, ota-onalarning nogiron bola va uning o'ziga xos xususiyatlari, oilada olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlar mazmuni haqidagi bilimlarini oshirish, oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash, bolaga me'yordagi oddiy munosabat turida qarashga o'rgatish imkoniyati cheklangan bolalarning kamchiliklarini samarali korreksiyalashga, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga, kasb-hunar o'rgatishga, sog'lom tengdoshlarga tenglashtiriga, jamiyatga moslashtirishga yuqori samarali ta'sir etadi. Xozirgi kunda Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga qaratilayotgan e'tibor ayni muddao bo'lib, ota-onalar uchun ko'p sonli uslubiy qo'llanmalar chop etilmoqda, joylarda seminar-treninglar tashkil etilmoqda. Ota-onalar bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning eng maqbul yo'llarini topishlarida inqiroz bosqichlarini bosib o'tmasdan balki aqlan teran fikrlar bilan yondashishlari ayniqsa maqsadga muvofiqdir. Jahon amaliyotida nogiron bolalarga ta'lim-tarbiya berishda shu toifa bolalarni xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanilayotgan audio-video kassetalar, kompyuter-multimediya, masofada turib o'qitish, kitoblar hozirgi bizning amaliyotimizga kirib kelmayotganligi maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalar ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'qish jarayonini jadallashtirishni, tafakkurning izchil va samarali shakllanishiga yordam beradi. Ushbu o'rinda Birinchi prezidentimizni shu so'zlarini eslash o'rinlidir: "O'zbek millatining, O'zbek farzandlarining qobiliyati, zehn-zakovati, tirishqoqlik borasida boshqa hech bir millat yoki xalqdan qolishmaydigan joyi yo'q. Faqat mavjud intellektual imkoniyatlarimizni to'liq ishga solishimiz, ulardan mukammal tarzda foydalana bilishimiz zarur. Birinchi prezidentimizning ayni shu so'zlari, ma'naviyat va ma'rifat sohasiga bu qadar jiddiy e'tibor berayotganligi har birimizning qalbimizda, qaysi soha vakili bo'lmaylik, avvalo, g'urur qolaversa yuksak ma'suliyat hislarini uyg'otmog'i lozim. Bu tarixiy jarayonda, ayniqsa ota-ona, o'qituvchining, tibbiyot xodimining ma'suliyati benihoya katta ekanligini unutmaslik kerak. Lekin bunday mutaxassislarning o'z kasbiga, bolalarga mehr-muhabbati bo'lmas ekan, qilingan xarakterlar, rejalar zoe ketadi. Bunday bolalarga ta'lim berishini kasb-kor ishi deb qaramaslik, soat 9 dan 18 gacha bog'lanib yuradigan joy, deb yurmaslik lozim. Nuqsonli bolalarni tarbiyalash maxsus tashkilotlarda amalga oshirilsa-da, bunday bolalarni tarbiyasida oila asosan muhim o'rin tutadi. Bolaning atrofida gilar bilan har doim me'yoriy muloqotda bo'lib turishi uning aqliy rivojlanishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratadi. Nuqsonli bolalarda bu hol ozmi-ko'pmi chegaralangan. Shuning uchun ham, ota-onalar oilada bolalarning ana shu tomoniga alohida ahamiyat berishlari

zarur. Shu bilan birga ota-onalar farzandlarini o'z tengdoshlari doirasiga kirishga harakat qilishlari lozim. U yoki bu analizatorning ish faoliyati buzilgan taqdirda bu masala muhim ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarning ko'rsatmalariga asoslanib ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi, eshitishida nuqsoni bo'lgan va zaif eshituvchi bolalarning ota-onalari ularda saqlanib qolgan analizatorlaridan mohirlik bilan foydalanibgina qolmay shu bilan bir qatorda ularning bu xususiyatlarini ish jarayoniga jalb qilganlarida buzilgan analizatorlaridan foydalanish va uni rivojlantirishda anchagina yaxshi natijalarga erishadilar. Oilada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirda nuqsonli bolalarning bilim doirasining kengaytirish, bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati va nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har kuni muntazam o'yinlar, maishiy mehnat, sayr qilish amaliyoti sababli ko'zi ojiz bolalarda bo'shliq masofa haqida tasavvurga ega bo'lib, oilada chamalash ko'nikmalarini egallaydi. Ota-onalar faoliyati, betinim harakati tufayli ko'zi ojiz bolalarning nutq va tafakkuri ma'lum darajada rivojlanadi. Bolalarni atrof-muhit, xususan, manzaralar va rasmlar bilan tanishtirib borish yaxshi natijalar beradi. Bolalarni savodga, o'qishga tayyorlash uchun oilada Brayl asbobi bilan tanishtirib va turlicha joylashgan va bo'rtib chiqqan nuqtalarni o'rganib ularni nomlashni mashq qilishlari lozim. Imkoniyati cheklangan bolalarning oilada tarbiyalanishi bizning mustaqil jamiyatimizda ijtimoiy xarakterga ega chunki oila jamiyat bilan uzviy bog'langan holda umumiy manfaatlar va aniq maqsadlar sari intiladi va shu asosida tarbiya amalga oshiriladi. Bolalarni oilada tarbiyalash ham maxsus hollarda bolalarning rivojlanishi va orqada qolishi va unga qo'yilgan talablarga javob bera olmasligiga olib keladi. Boshqa hollarda ota-onalar farzandlarini me'yordan ortiq erkalatadilar, ishlarini o'zlari bajarib ularni qiyinchiliklardan asraydilar bunday tarbiya natijasida bolalar majolsiz bo'lib, rivojlanishdan orqada qoladilar. Bolalarda ro'y beradigan nuqsonlarni chuqur o'rganish, o'z vaqtida uni tegishli mutaxassislarga ko'rsatish va ularning maslahatini olish, oila uchun muhim kasb etadi. Oilada nuqsonli bolani har tomonlama rivojlantirish maqsadga muvofiq tarbiya mazmuniga jismoniy, aqliy, ma'naviy madaniy mehnat, estetik va iqtisodiy, ekologik, jinsiy, huquqiy tarbiyaga kiradi. Oilada jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi — milliy qadriyatlar, an'analar, bolaning sog'ligini mustahkamlash, uning tana a'zolarini chiniqtirishdan iborat. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish tadbirlari poliklinika, psixonevrologik dispanser, reabilitatsiya markazlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktab va maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlar shifokorlari tomonidan belgilanadi. Ijobiy natijalarga erishish uchun ba'zi gigienik sharoitlariga amal qilgan holda jismoniy mashqlar, chiniqtiruvchi muolajalar muntazam olib borilishi kerak. Bola va o'smirlarning sport turlari bilan uzviy shug'ullanib turishi ularni mutassil jismoniy rivojlantirib kamchiliklarni korreksiyalabgina qolmay, balki ularning axloqiy irodasini kuchli bo'lishiga, o'z kuchiga hosil qilish xususiyatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Nuqsonli bolaning oilada to'g'ri tarbiyalashi harakatining buzilishi ko'rinishidagi qo'rquv va eshituvning buzilishidan kelib chiqqan ikkilamchi asoratlarning oldini olishga va bartaraf qilishga imkoniyat beradi. Nuqsonli bolaning oilada tarbiyalanishi uning maktabga tayorgarligini ta'minlaydi. Bu bolaning maxsus yoki ochiq ta'lim tizmidagi bolalar bog'chasida maxsus hamda umumta'lim maktablarida ta'lim tarbiya samaradorligini oshiradi. Nuqsonli bolani bog'chaga yoki maktabga qabul qilinishi oilaga muhim majburiyatlarni yuklaydi. Bolalar tashkilotlari bilan uzviy aloqa bog'lash asosiy shartlardan biridir. Bolaning dars tayyorlashda, jamoatchilikni turli topshiriqlarini bajarishda ota-onalarning yordami kattadir. Oilaviy tarbiyani to'g'ri tashkil etishda maxsus maslahatlar sifatida pedagogik targ'ibotlar, ma'ruzalari, ota-onalarga tegishli maxsus adabiyotlar mahorat bilan yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani oilada axloqiy tarbiyalashda maxsus vazifalardan biri uning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va nuqsonlarni susaytirish, bartaraf etishdir. Bu masala imkoniyati cheklangan bolalarga xos birlamchi va ikkilamchi me'yordan cheklanishlar natijasida vujudga keladi. Bu cheklanishlar bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqotlarini qiyinlashtiradi. Nuqsonli bolaning axloqiy tarbiyasida oilaning ahamiyati ulkandir. Bunda bola bilan oila o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish munosabatlarini o'rnatish alohida ahamiyatga ega. Oilada bolalarni noto'g'ri tarbiyalash natijasida boshqalar harakatining tub mazmunini anglamasligi tufayli ularga nisbatan ishonchsizlik yoki yovuzlik hissiyoti tuyiladi. Ba'zida nuqsonli bolalar yakkalashga, yolgizlanishga intiladigan ba'zida atrofdagilarga nisbatan g'azabli munosabatda bo'ladi. Shuning uchun atrofdagilar bilan yaxshi aloqa munosabatlarini o'rnatish o'ziga va boshqalarga ishonch ruhida tarbiyalash bolani vazifalaridan biridir. Ko'pincha nuqsonli bolalar atrofdagilar bilan aloqa munosabatlarini o'rnatish uchun to'sqinlik qiladigan ishonchsizlik hissiyoti tuyiladi. Bunday bolalarning diliga to'g'ri yo'l topish muhim ahamiyatga ega. Ortiqcha erkalash turli qiyinchiliklardan ayash, bola shaxsiga shikast yetkazadi. Chunki, nuqsonli bolani mustaqilligi kamayib ketadi. Bolaning oila a'zolari bilan ham yaxshi munosabatda bo'lishi uning boshqa bolalar bilan ham munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi. Nuqsonli bola bilan sog'lom bola o'rtasida anglashilmovchilik ro'y berganda ota-onalar ularga ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan yoki aqli zaif bola bilan suhbatlashish, ko'zi ojiz bolaga qanday ko'mak berish kerakligini tushuntirishlari lozim. Nuqsonli bolaning me'yorda o'sgan bolalar jamoasi bilan munosabatini uning axloqiy tuyg'ularini, tasavvurini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bolaning oiladagi: mehnati, bolani o'ziga o'zi xizmat qilishi, uy ishlarida, maktab va oromgohlarda ijtimoiy foydali mehnat jarayonida ishtirok etishi uning axloqiy xislatlari manaviy xususiyatlarini shakllantirish va tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Яшковой Н.В. –М., 1991.
2. Maxsus pedagogika M.U. Xamidova. -Toshkent 2018
3. Pedagogik-psixologik diagnostika D.A.Nurkeldieva Toshkent
“Vneshinvestprom”, 2019 y

